



## INTENSIV MEVA OLMAZORLARIDAN OLINGAN IQTISODIY SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARINI KESISH USULI VA DARAJALARIGA BOG'LIQLIGI

**R. Yunusov**

Dotsent, qxfn, Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro

**S. S. Shadiyeva**

O'qituvchi, Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro

***Annotatsiya:** Maqolada intensiv olma bog'larida resurs tejamkor texnologiya asosida hosil beruvchi shoxlarni yoshartirish va me'yorlashtirish kesish usullari va darajalariga bog'liqligi, meva yetishtirishni ilmiy asoslangan holda iqtisodiy ko'rsatkichlarini ko'payishi omillari kiritilgan. Tajriba va ishlab chiqarish sharoitida eng ko'p meva yetishtirishda iqtisodiy ko'rsatkichlari hosil bergan shoxlari 3-4 yillik sikl bo'yicha 12-16 dona hosil kurtaklarini qoldirgan holda erishilganligi aniqlangan.*

***Kalit so'zlar:** Intensiv olma bog'i, yoshartiruvchi me'yorlashtiruvchi kesish, kesish usullari va darajalari, nav-payvandtaglar kombinatsiyasi, hosildorlik, hosil sifati, bir dona olma mevasini vazni, iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari, sof foyda, rentabellik.*

### **Kirish**

Hozirgi vaqtda intensiv bog'dorchilik tizimini samarali yurgizishda majmuy ilmiy-asoslangan texnik, resurs tejamkor texnologiya, tashkiliy-iqtisodiy va ijtimoiy elementlarni birgalikda bir-biriga bog'liq holda olib borish yo'li bilan muammolarni ijobiy hal qilish mumkin va pirovard natijasida esa yuqori samaradorlikka erishish mumkindir.

Bog'dorchilik tizimini samarali olib borishning eng rastional usuli majmuy tadbirlarni unda shakllantirish hisoblandi. Hozirgi kunda intensiv bog'dorchilik tizimini rivojlantirish orqali quyidagi yutuqlarga erishish mumkin: xalqimizni rezavor-ho'l meva mahsulotlariga bo'lgan talabini yuqoriligini inobatga olib, dunyo bozorida raqobatbardosh bo'ladigan, eng sara va ekologik toza, har-xil mevalarni ishlab chiqarish; ilg'or ilmiy innovatsion texnologiya va texnika yutuqlaridan foydalanib, ushbu sohani keskin jadallashtirish, kam sarf-xarajat qilib, tannarxi arzon, yuqori va sifatli mahsulot etishtirishga erishish, ishlab chiqarishga mehnatga haq to'lashning eng ilg'or tashkiliy shakllarini qo'llash, soha uchun zarur yetuk mutaxassis kadrlarini tayyorlash, ishlab chiqarishda kooperativ va integrastion aloqalarni va agroklastarlarni o'rnatish, davlat tomonidan yangi va ko'p yillik (jumladan, olmazorlarni) intensiv mevali bog'larni barpo etilishini qo'llab –quvvatlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bog'dorchilik xo'jaliklarida olmazorlarni ham agronomik va innovatsion texnologik jihatdan yaxshilashning eng asosiy omillaridan biri-ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hisoblanadi. Sohani yuqori iqtisodiy ko'rsatkichlarga ko'tarish uchun mavjud resurslardan samarali foydalanib, intensivlashtirish, muttasil mo'l va yuqori sifat ko'rsatkichlariga erishish hamda xo'jalik yo'nalishini bozor iqtisodiyoti sharoitiga moslashtirish lozim bo'ladi va bu davr talabi hisoblanadi [1,3,5]

**Tadqiqot o'tkazish joyi va usullari:** Ilmiy tadqiqot ishlari Buxoro viloyati, Buxoro tumani, "Amin Hayot bo'g'i" fermer xo'jaligida 2010-2015 yillar davomida 2006 yilda o'tkazilgan intensiv olma bog'ida o'tkazildi. Buxoro viloyatining iqlimi keskin kontinental hisoblanadi. Bir yilda o'rtacha 175-215mm yog'ingarchilik bo'ladi. Issiq quyoshli kunlar 240 kungacha davom



etadi. Qishi quruq va sovuq bo'ladi. O'rtacha havoning nisbiy namligi 40-60% ni tashkil etadi. Mazkur fermer xo'jaligini tuprog'i qadimdan sug'oriladigan o'tloqi alluvial hisoblanadi. Olib borilgan agrokimyoviy tahlillar natijalari bo'yicha yaylovli, eski va yangi sug'oriladigan maydonlarda chirindilarning miqdori kam bo'ladi. Fermer xo'jaligini tuproqning haydalma qatlamida chirindini miqdori 0,8-1,4% ga, azotning miqdori 0,06-0,12% ga teng bo'ladi. Fosforning yalpi miqdori esa 0,11-0,18% ga, almashinuvchan kaliy miqdori bo'lsa 1,5-3,0% ni tashkil qiladi [2,4,6,7].

"Amin Hayot bo'g'i" fermer xo'jaligining tuprog'i alluvial qadimdan sug'oriladigan, kuchsiz sho'rlangan tuproqdan iborat bo'lib, sizot suv sathining yuzada joylashishi bilan 2,3-2,5 m farq qiladi, mexanik tarkibi bo'yicha o'rtacha soz tuproq hisoblanadi.

**Tadqiqotni o'tkazishdan asosiy maqsad:** bu ishlab chiqarishga eng yuqori samarali yoshartiruvchi davriy kesish usuli va darajalarini hosil berib bo'lgan novdalarda qo'llash, qoldirilgan hosil beruvchi novdalar bo'yicha qisqartirish darajalarini o'rganish orqali serunum intensiv bo'g'larda mevalar hosilini barqaror va muttasil oshirishni ta'minlash, yuqori va sifatini meva berish samaradorligini oshirish va olingan eng ijobiy natijalar bo'yicha ishlab chiqarishga tavsiya berishdan iborat hisoblanadi [8,9,10,11]

**Tadqiqot uslubiyoti:** Buxoro viloyatining bog'dorchilikka ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaliklaridan, jumladan "Amin Hayot bo'g'i" fermer xo'jaligida olinayotgan urug'li mevalarning hosildorligi shundan dalolat beradiki, bir gektar hisobiga hosildorlikning keskin oshishi va sifatini yaxshilash yoki undan olinayotgan sof foyda va rentabellik darajasining sezilarli oshishini ko'rsatmoqda. Bunda bir s olma hosilni etishtirishdagi tannarx va mehnat xarajatlarini bir gektar hisobga kamaygani holda, unga sarflangan material va mehnat xarajatlari bir gektarga ko'payadi. Hosildorlikni yillar bo'yicha yoshartirish o'tkazilgan daraxtlarda oshganligi aniqlandi.

Ishlab chiqarishda yuqori darajali, jadal sur'atda meva etishtirishning ajralmas shartlaridan biri bir gektar bog' uchun qilingan ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishdir va olinadigan hosil miqdori va sifatini yaxshilash hisoblanadi. Barcha ilg'or texnologiyalar bog'dorchilikda qo'llanilishi natijasida hosildorlik keskin oshadi, etishtirilgan mahsulotning sifati yaxshilanib, bozorda sotish bahosi yuqori bo'ladi va meva ishlab chiqarishni rentabellik darajasi keskin oshadi.

Bir gektar urug'li meva bog'larida (olmazorda) ishlab chiqarish xarajatlarining ortishi bilan ishlab chiqarish sharoitida meva etishtirish ko'rsatkichlari oshadi va iqtisodiy samaradorligi ma'lum bir vaqtda ko'rsatilgan miqdorgacha ko'payib boradi, bu holat intensiv urug'li meva bog'lari nihoyat serdaromadligidan darak beradi.

"Amin Hayot bo'g'i" fermer xo'jaligida iqtisodiy samaradorlikni aniqlashda quyidagi keltirilgan ko'rsatkichlarga e'tibor qaratildi va hisoblashda fpydalanildi.

- yil davomida ishlab chiqilayotgan yalpi mahsulot hajmiga;
- ishlab chiqarilgan mahsulot tannarx ko'rsatkichlarini hisoblash usullariga.

2015- yilda "Amin Hayot bo'g'i" fermer xo'jaligi olma hosilini etishtirish uchun sarflangan xarajat va material summalarini aniqlashda ayni paytda Buxoro viloyati, Buxoro tumanining fermer xo'jaliklarida qabul qilingan namunaviy texnologik xarita asosida tuzilgan me'yoriy va ustama xarajatlar bo'yicha har bir ishning turiga qarab iqtisodiy samaradorlik aniqlandi.

**Tadqiqot natijasi:** Tadqiqot o'tkazilgan 2010-2015 yillari etishtirilgan hosildorlik bo'yicha iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlashda bir gektar uchun ketgan umumiy xarajat



qiymati, mahsulot tannarxi, yalpi va sof daromad haqda meva yetishtirish rentabellik darajasi aniqlanildi. (1-jadval)

**Olma daraxtlarini hosildorligi va iqtisodiy samaradorligini ko'rsatkichlarini yoshartirish kesish usullari va darajalariga bog'liqligi**

Hosil bergan o'suvchi shoxlarni yoshartiruvchi kesish variantlari	Qoldiradigan hosil beruvchi kurtaklar miqdori, dona	Hosildorlik, t\ga	Bir gektaga qilingan umumiy xarajatlar, ming so'm	Yalpi mahsulotni qiymati ming so'm	Sof foyda ming so'm	Reneta belyank darajalari %
---	---	-------------------	---	------------------------------------	---------------------	-----------------------------

**Olmani Golden Delishes navi**

Nazorat	Qisqartiril maydi	16.8	1762	3360	1598	90.7
3 yillik sikl	4-8	19.5	1857	3900	2046	110.3
	8-12	20.5	1892	4100	2208	116.7
	12-16	21.2	1912	4240	2328	121.7
	Qisqartiril maydi	17.5	1812	3500	1688	91.1
4 yillik sikl	4-8	10	1805	3600	1795	99.4
	8-12	19.2	1840	3960	2120	115.2
	12-16	20.5	1930	4100	2170	112.4
	Qisqartiril maydi	16.8	1790	3360	1570	87.7

**Olmani Renet Semerenko navi**

Nazorat	Qisqartiril maydi	15.0	1660	3000	1340	80.7
3 yillik sikl	4-8	18.3	1740	3660	1920	110.3
	8-12	18.5	1745	3700	1955	112.0
	12-16	20.0	1798	4000	2202	122.5
	Qisqartiril maydi	17.0	1700	3400	1706	103.5
4 yillik sikl	4-8	17.4	1690	3480	1790	105.6
	8-12	18.0	1720	3600	1880	109.3
	12-16	18.6	1750	3720	1970	112.5
	Qisqartiril maydi	16.2	1655	3240	1575	94.5

**Olmani Pervenets Samarqand navi**

Nazorat	Qisqartiril maydi	15.9	1690	3180	1490	88.2
3 yillik sikl	4-8	18.0	1720	3600	1980	109.3
	8-12	18.5	1740	3700	1960	112.5
	12-16	19.2	1790	3840	2050	114.5



	Qisqartiril maydi	16.5	1696	3300	1605	94.5
4 yillik sikl	4-8	17.2	1698	3440	1742	102.6
	8-12	18.0	1710	3600	1890	110.5
	12-16	18.8	1780	3760	1980	111.2
	Qisqartiril maydi	16.2	1675	3240	1565	93.1
$N_{sr095}$						2,1
$R^1, \%$						3,5

Tadqiqotlar o'tkazilgan 2010-2015 yillarning birini shartli ravishda olib, uning iqtisodiy samaradorligini tahlil etadigan bo'lsak, 2010 yilda bir tonna olma mevasining sotish narxi naviga qarab, bir-navi 500000 so'm/t; ikkinchi navi 280000 so'm/t; uchinchi navi 180000 so'm/t ni tashkil qilgan.

3 xil olma navlarini turli me'yor, usullar va darajalarda kesish tadbirlari qo'llab, olmaning yuqori hosil etishtirishning iqtisodiy samaradorligi hisoblanadi.

1-jadval ma'lumotlarini tahlil etadigan bo'lsak, unda mazkur kesish usullari qo'llanilishiga hamda mahsulotning sotilishiga, xarajatlar turiga qarab, shartli ravishda ma'lum miqdorda sof daromad ko'rsatkichlarini olishga erishildi.

Agar biz hech qanday kesishning ilg'or va resurstejamkor usullari qo'llanilmagan nazorat varianti bilan kesish usuli va darajalari qo'llanilgan variantlarda etishtirilgan meva mahsulotidan olingan iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari bir-birlari bilan qiyosiy darajada solishtirganimizda, pirovard natijada shartli ravishda quyidagi natijalar olinganini qayd etish maqsadga muvofiq.

2015-2015 yillar davomida o'tkazilgan tadqiqot natijalari shundan dalolat bermoqdaki, o'rganilgan 3 xil olma navlari bo'yicha 3-4 yillik o'rindoshlik stikli bilan hosil berib bo'lgan, o'suvchi shoxlarda yoshartiruvchi va me'yorlashtiruvchi kesish usuli va darajalari qo'llanilgan variantlarda nazorat variantiga nisbatan iqtisodiy samaradorlik sezilarli darajada yuqori bo'ldi.[17,18,19]

Nazorat variantida sof daromad (etishtirilgan umumiy yalpi hosil qiymatidan barcha ishlab chiqarish xarajatlari olib tashlangan holda sof daromad hisoblandi) 1490-1518 so'm/ga ni tashkil etgan bo'lsa, Golden Delishes va Pervenest Samarqanda navlarining umumiy narxi o'rnini bosuvchi uch yillik stikl bilan kesish usuli qo'llanilib, 12-16ta hosil beruvchi kurtak bo'g'inlari qoldirilgan variantda nazoratga nisbatan 452-722 ming so'm yuqori hosil etishtirildi. Xuddi shunday hosil beradigan shoxlarni to'rt yillik stikl bilan kesish usuli bilan 12-16 hosil beruvchi kurtak bo'g'inlari qoldirilgan Renet Simirenko navida umumiy etishtirilgan mahsulot narxi boshqa variantlarga nisbatan yuqori bo'ldi. Nazorat variantiga nisbatan ushbu variantlardan 450-630 ming so'm/ga ko'p foyda olindi.[20, 21, 22]

### **Xulosa.**

Sinalayotgan variantlar ichida eng yuqori iqtisodiy samaradorlik Golden Delishes va Pervenets Samarqand variantida kuzatilib, sof daromad–1970-2002ming so'm/ga ni tashkil etdi, nazoratga nisbatan 604-630ming sum/ga ko'p foyda olinganini ko'p yillik o'tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalari ko'rsatmoqda.



Shuningdek sinalayotgan variantlar ichida eng yuqori rentabellik kesish usuli va darajalari qo'llanilgan olma navining 12-14 kurtak qoldirib variantlarda kuzatilib, rentabellik 121,7-122.5% ni tashkil etgan holda, nazoratga nisbatan 21,3-30,5 % yuqori bo'ldi.[12.13.14.15.16.]

O'rganilgan olma navlarida eng yaxshi va eng ko'p yangi novda paydo qilgan variant, hosil shoxlarni 8-12 sm uzunligida kesish hisoblanib, ularni qisqartirishda kurtaklarini quyosh tomonga qoldirib kesish yaxshi natija beradi va yangi 2-3 kuchli o'suvchi novdalar shakllanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ганиева, Ф. А., & Юнусов, Р. (2021). Рост и развития вегетативно-размножаемых подвоев яблони в зависимости от плотности посадки." СтолицаНауки".
2. Atayeva, Z., Yunusov, R., Nazarova, S., & Ganiyeva, F. (2020). INFLUENCE OF CULTIVAR COMBINATIONS AND SEEDLING THICKNESS ON THE FORMATION OF PHYTOMETRIC INDICATORS AND PRODUCTIVITY OF PEAR TREES IN INTENSIVE ORCHARDS. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 10(9).
3. Amrilloyevna, Ganiyeva Feruza, and Yunusov Rustam. THE GROWTH, DEVELOPMENT AND YIELD OF APPLE TREES IN INTENSIVE FRUIT ORCHARDS ARE HARDWOOD CUTTING COMBINATIONS AND THEIR DEPENDENCE ON THE THICKNESS OF SEEDLINGS." NVEO-NATURAL VOLATILES & ESSENTIAL OILS Journal| NVEO (2021): 9591-9595.
4. Ganiyeva, Feruza. РОСТ И ПЛОДОНОШЕНИЕ ДЕРЕВЬЕВ ПЕРСИКА ВОРОШАЕМЫХ САДАХ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ КОНСТРУКЦИИ КРОНЫ." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 6.6 (2021).
5. Ganiyeva, Feruza. "ВЛИЯНИЕ ЗАСОЛЕНИЯ ПОЧВ НА ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ОРОШАЕМЫХ ЗЕМЕЛЬ И ФИЗИОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ, ПРОТЕКАЮЩИЕ В РАСТЕНИЯХ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 6.6 (2021).
6. Ganiyeva, Feruza. "КЕСИШ УСУЛИ ВА ДАРАЖАЛАРИНИНГ ОЛМА ДАРАХТИ БАҒ САТҲИГА ТАЪСИРИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 6.2
7. Артикова Х.Т, Р.Юнусов Х.Х. Салимова .Климатические условия и ристительность субтропической теплой 4 жаркой пустыне
8. Ganiyeva, Feruza. "БУХОРО ВОҲАСИ ШАРОИТИДА ОЛМА ДАРАХТЛАРНИ ЎСИШИ, РИВОЖЛАНИШИ ВА ҲОСИЛДОРЛИГИНИНГ КЕСИШ УСУЛЛАРИ ВА ДАРАЖАЛАРИГА БОҒЛИҚЛИГИ." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 6.2 (2020).
9. Ganiyeva, Feruza. "APPLICATION OF CARBORPHOS IN THE CONTROL OF PLANT SPIDERS IN ВУКНАРА REGION." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 7.7 (2021).
10. Ganiyeva, Feruza. "INTENSIV BOG'LARDA PAKANA NOKLARNI TEJAMKOR INNOVATSION TECHNOLOGIYALAR ASOSIDA PARVARISHLASH OMILLARI." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 6.6 (2021).
11. Ganiyeva, Feruza. "БУХОРО ВИЛОЯТИ БУХОРО ТУМАН БОҒИКАЛОН МФЙ ҲУДУДИДАГИ МЧЖ "СИЁВУШАҒРО" БОҒДОРЧИЛИК ФЕРМЕР ХЎЖАЛИГИ ТУПРОҚЛАРИНИНГ АГРОКИМЁВИЙ ХОССА-ХУСУСИЯТЛАРИ." ЦЕНТР



- НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 8.8 (2021).
12. Yunusov, Rustam. "THE EFFECT OF CUTTING (PRUNING) METHODS AND LEVELS IN INTENSIVE GARDENS ON THE FORMATION OF APPLE TREES." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 8.8 (2021).
  13. Yunusov, Rustam. "Studying the different formations of apple trees in intensive orchards." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 6.6 (2021).
  14. Yunusov, Rustam. "Influence of cultivar combinations and seedling thickness on the formation of phytometric indicators and productivity of pear trees in intensive orchards." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 10.9 (2020).
  15. Yunusov, Rustam. "int INTENSIV BOG'LARDA PAKANA NOKLARNI TEJAMKOR INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA PARVARISHLASH OMILLARI.: Yunusov, FA Ganieva, OO Orifov." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 7.7 (2021).
  16. Ganieva, Feruza. "ПАКАНА НОК ДАРАХТЛАРИНИНГ ЎСИШИ, РИВОЖЛАНИШИ ВА ҲОСИЛДОРЛИГИНИНГ КЎПАЙИШИГА ВЕГЕТАТИВ ПАЙВАНДТАГ ҲАМДА ИНТЕНСИВ НАВЛАРИНИНГ ТАЪСИРИ." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ(buxdu.uz) 6.2 (2020).
  17. Yunusov, Rustam. "INTENSIV PAKANA NOK BOG'LARI TUPROG'INING FIZIKAVIY-KIMYOVIY HOSSALARI VA REJIMINING TASNIFI."ЦЕНТР НАУЧНЫХПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 7.7 (2021).
  18. Yunusov, Rustam. "THE GROWTH, DEVELOPMENT AND YIELD OF APPLE TREES IN INTENSIVE FRUIT ORCHARDS ARE HARDWOOD CUTTING COMBINATIONS AND THEIR DEPENDENCE ON THE THICKNESS OF SEEDLINGS." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 6.6 (2021).
  19. Yunusov, Rustam. "Economical innovative basis for the care of intensive stunted apple varieties." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 6.6 (2021).
  20. Yunusov, Rustam. "ВЛИЯНИЕ НИВЕРСАЛЬНОДЕЙСТВУЮЩЕЙ КОМПОЗИЦИОННОЙ СУСПЕНЗИИ НА УРОЖАЙНОСТЬ И КАЧЕСТВО ЗЕРНА В УСЛОВИЯХ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz) 5.5 (2021).
  21. Rustam Yunusov, Makhbuba Latipovna Ikramova, Feruza Amrilloevna Ganieva, Sayyora Sadulloyevna Shadiyeva. THE EFFECT OF CUTTING (PRUNING) METHODS AND LEVELS IN INTENSIVE GARDENS ON THE FORMATION OF APPLE TREES. ResearchJet Journal of Anaysis and Inventions. ISSN: 2776-0960 Volume 3, Issue 1 Jan., 2022. P. 128-137 <https://reserchjet.academiascience.org/index.php/rjai/article/view/412/379>
  22. Sadulloyevna S. S., Akramovna R. M., Isroilovna B. D. Medium and Strong Salty Soils the Role of Microorganisms in Increasing Productivity //EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 68-70.
  23. Rakhimova M. A., Shadiyeva S. S., Boriyeva D. I. THE INFLUENCE OF THE DIRECTION AND ACTIVITY OF MICROBIOLOGICAL PROCESSES ON THE FORMATION OF AGROCHEMICAL PROPERTIES OF SOILS OF VOBKENT DISTRICT //БАРҚАРОРЛИК ВА ЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ



- ЖУРНАЛИ. – 2022. – С. 320-323.
24. Shadieva S. S., Borieva D. I., Rakhimova M. A. The Importance of Agricultural Mapping in Soil Science //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 3. – С. 5-8.
  25. Rahimova M. The Importance of Agricultural Mapping in Soil Science //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
  26. Rahimova M. Influence of various factors on microbiological and enzymatic activity of alluvial soils of Bukhara oasis meadow //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
  27. Sadulloyevna S. S., Akramovna R. M., Isroilovna B. D. Medium and Strong Salty Soils the Role of Microorganisms in Increasing Productivity //EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 68-70.
  28. Olimov, S. S., & Mamurova, D. I. (2021). Graphic Information Processing Technology and its Importance. *European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)*, 10, 1-4.
  29. Зарипов Г. Т. и др. Особенности технологии приготовления концентратов на основе овощных экстрактов //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 278-284.
  30. Nazarova S. M., Zaripov G. T. General physical properties of irrigated grass soils of Bukhara oasis and ways to improve them //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 4. – №. 3. – С. 66-69.